


Whirlpool



Foydalanuvchiga Ko'rsatmalar



www.whirlpool.eu/register



FOYDALANUVCHIGA KO'RSATMALAR



WHIRLPOOL MAHSULOTINI SOTIB OLGANINGIZ UCHUN RAHMAT.

Yanada to'liq yordam olish uchun uskunangizni www.whirlpool.eu/register saytida ro'yxatdan o'tkazing.

KO'RSATKICH

XAVFSIZLIK TEXNIKASI VA MEHNAT MUHOFAZASI BO'YICHA QO'LLANMA.....	3
Xafsizlik o'rsatmalari	3
FOYDALANISH VA AVAYLAB ISHLATISH UCHUN KO'RSATMALAR	5
Mahsulot tavsifi	5
Boshqaruv paneli	5
Aksessuarlar	6
Uskunani ishlatish yo'li	6
Birinchi bor foydalanish	6
Kundalik ishlatish	6
Maxsus funktsiyalar	8
Ko'rsatkichlar	10
Pishirish jadvali	10
Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish	10
Muammolarni yechish	11
Operatsiya paytida paydo bo'lgan tovushlar	11
Tasdiqlangan pishirish	11
Sotuvdan so'nggi xizmat	12
O'R NATISH QO'LLANMASI	13

XAFSIZLIK O'RSATMALARI

MUHIM:O'QIB CHIQISH VA AMAL QILISH ZARUR

Uskunadan foydalanishdan oldin markur xafsizlik ko'rsatmalarini o'qib chiqing. Uni keyingi foydalanish uchun yaqin joyda saqlang.

Bu ko'rsatmalar va uskunaning o'zi xar doim rioya gilish mumkin bo'lgan xafsizlik ogohlantirishlariga ega. Xafsizlik ko'rsatmalariga rioya qilinmasligi, uskunadan noto'g'ri foydalanishi yoki boshqaruv tizimining no'to'g'ri ularishiga ishlab chiqaruvchi javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

⚠ Kichik yoshdagibolalar(0-3 yoshgacha) uskunadan uzoqroq saqlanishi lozim. Kichik yoshdagibolalar (3-8 yoshgacha) uzlusiz nazorat ostida bo'limganda uskunadan uzoq saqlanishlari lozim. Mazkur uskunadan 8 va undan katta yoshli bolalar, shuningdek jismoniy, sezish va aqliy qobiliyati cheklangan yoxud bilim va tajribasi yetishmaydigan shaxslar ham foydalanishi mumkin, qachonki ular tajribali shaxs qarovi ostida bo'lsalar yoki uskunadan xavfsiz foydalanish borasida yo'riqnomada olgan bo'lsalar va mumkin bo'lib xavfni anglab yetsalar. Bolalar uskunani o'ynamasliklari lozim. Bolalar kattalarning qarovisiz uskunani tozalashlari va unga qarashlari mumkin emas.

⚠ OGOHLANTIRISH: Uskuna va uning qismlari foydalanish vaqtida qizadi. Qizib turgan elementlariga qo'l tegmasligiga e'tibor qaratilishi lozim. 8 yoshdan kichik bo'lgan bolalar uzlusiz nazorat bo'limgan xollarda uskunadan uzoqda saqlanishi lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH: Agar pishirish panelining yuzasi shikastlangan bo'lsa bo'lsa uskunadan foydalanmang - tok urisi xafi bor.

⚠ OGOHLANTIRISH: Olov chiqishi vfi: pishirish yuzasida narsalarni saqlamang.

⚠ OGOHLANTIRISH: Ovqat tayyorlash jarayoni nazorat ostida bo'lishi lozim. Qisqa ovqat tayyorlash jarayoni uzlusiz nazorat ostida bo'lishi lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH: Pishirish panelida yog' yoki moy ishlatib nazoratsiz ovqat tayyorlash xavfli bo'lishi mumkin – olov chiqish xavfi. HECH qachon olovni suv bilan o'chirishga xarakat qilmang: buning o'rniqa uskunani o'chirib olovni qopqoq bilan yoki olov o'chirgich qoplamasini bilan yoping.

⚠ Uskunadan ish yuzasi sifatida foydalanmang. Kiyimlar yoki boshqa yonuvchan materiallarni uskunaning barcha qismlari sovib bo'lganiga qadar undan uzoqroq saqlang - yong'in xavfi.

⚠ Pichoq, vilka, qoshiq, va qopqoqlar kabi metal obyektlar pishirish paneli ustiga qo'yilmasligi kerak qizish ehtimoli bor.

⚠ Ishlatib bo'lgandan so'ng pishirish paneli elementini o'chiring va unga suyanmang.

TO'G'RI ISHLATISH

⚠ OGOHLANTIRISH: Bu uskuna taymer yoki tashqi yoqish moslamalari kabi alohida nazorat tizimlari yordamida boshqarish uchun moslashmagan.

⚠ Maskur uskuna uy sharoitlarida va shunga yaqin quidagi sharoitlarda ishlatish uchun moslashgan: magazin, ofislar, va boshqa ishlash joylaridagi oshxonalarda; qishloq xo'jaliklarda; mijozlar tomonidan mehmonxonalarda, motellarda, yotoq, va nonushta mehmonxonalar va boshqa yashash joylarida.

⚠ Boshqa hech qanday foydalanish xolatlari ruxsat etilmaydi (masalan xonani isitish uchun).

⚠ Bu uskuna professional foydalanish uchun emas. Uskunadan ochiq havoda foydalanmang.

O'R NATISH

⚠ Uskuna ikki yoki ko'proq odam tomonidan ko'tarilishi va o'rnatilishi lozim - jarohatlanish ehtimoli. Uskuna o'ramini ochish va o'rnatishda ximoya qo'lqoplaridan foydalaning - qo'l kesib olish ehtimoli.

⚠ O'rnatish, suv ta'minotiga ulash (agar mavjud bo'lsa) va elektrga ulashlar, va tuzatishlar faqat maxsus tajribaga ega bo'lgan odamlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Foydalanish bo'yicha yo'riqnomada maxsus ko'rsatma berilmagan bo'lsa, uskunaning biron qismini ta'mirlash yoki almashtirish taqiqlanadi. Bolalarni uskuna o'rnatilishi joyidan uzoqroqda saqlang. Uskunani qadoqdan chiqarganda transportda tashish vaqtida shikastlanmaganligini tekshiring. Muammoga uchragan taqdirda dilerga yoki yaqin joylashgan sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. O'rnatishdan keyin o'rama qoldiglari (plastik, penoplastiroq qismlari va hkz.) bolalardan uzoqda saqlanishi lozim - bo'g'ilib qolish ehtimoli. Uskuna xar bir o'rnatish jarayonidan oldin elektr ta'minotidan uzilishi lozim - tok urish ehtimoli. O'rnatish vaqtida uskuna simi zararlanmaganligiga amin bo'ling - o't chiqish va tok urush ehtimoli. O'rnatish oxiriga yetganidan keyingina uskunani faollashtiring.

⚠ Qismlarni kesish jarayonlarini o'rnatishdan oldin qilib oling vayog'och bo'laklar va qismlarini yig'ishtirib oling.

⚠ Agar uskuna pechning tepasiga o'rnatilgan bo'lmasa, ajratuvchi panel uskunaning tagiga alohida qism sifatida o'rnatilishi lozim.

ELEKTR ENERGIYASI BILAN ISHLASHDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

⚠ Uskunani elektr ta'minotidan sug'urib tashlash orqali o'chirish imkoniyati bo'lishi kerak, yoki elektr

amaliyotlarini bajarish qoidalari asosida ko'p yo'nalishli o'chirgich orqali o'chirib yoqish va uskuna milliy elektrik xafsizlik standartlari bo'yicha yerlantirilishi (zazemleniye) kerak.

⚠ Udlinitel, troynik va adapterlardan foydalanmang. Elektr qismlar foydalanuvchi uchun o'rnatilgandan keyin ko'rinxmay turishi lozim. Uskunadan ustingiz nam yoki yalangayoq xolatda foydalanmang. Agar uskuna elektr simi zararlangan, to'g'ri ishlamayotgan, yoki zararlangan yoki tushirib yuborilgan bo'lsa uni ishlatmang.

⚠ Agar elektr simi zararlangan bo'lsa u ishlab chiqaruvchi tomonidan shunga o'xshashiga almashtirib berilishi lozim, tok urushi ehtimolini oldini olish uchun xizmat ko'rsatish markazi yoki tajribaga ega odam tomonidan almashtirilishi lozim.

TOZALASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

⚠ OGOHLANTIRISH: Texnik xizmat ko'rsatishni boshlashdan avval uskunaning o'chirilganligi va elektr ta'minotidan uzulganligiga amin bo'ling; Hech qachon bug'li tozalash uskunalaridan foydalanmang - tok urish ehtimoli.

⚠ Tozalash maqsadida abraziv, yoki zanglaydigan maxsulotlar, xlor asosidagi tozalash vositalari yoki temir chochiqlardan foydalanmang.

QADOQLASH MATERIALLARINI UTILIZATSIYA

QILISH

Qadoqlash materiallari 100 foiz ikkilamchi qayta ishlanadi, bu to'g'risida maxsus belgi dalolat beradi .

Shunday qilib qoplama qismlari javobgarlik bilan va chiqindilarni utilizatsiya qilish qonun qoidalariга rioya qilgan xolda utilizatsiya qilinishi lozim.

MAISHIY TEXNIKANING UTILIZATSIYASI

Mazkur uskuna qayta ishlangan yoki takror ishlatilishi mumkin bo'lgan ashyolardan tayyorlangan. Utilizatsiya qilish uchun utilizatsiya qilish bo'yicha mahalliy qoidalarga rioya qilish lozim. Xo'jalik elektr uskunalarni qayta ishlash tuzatish, va qo'llash bo'yicha ma'lumotlarni olish uchun mahalliy boshqaruv organlari chiqindi bilan ishlash xizmati yoki texnika sotuvchi magazindagilar bilan maslahatlashing. Mazkur uskuna 2012/19/EC-sonli Elektr va elektron uskunalarni utilizatsiya qilish bo'yicha Yevropa Direktivasi talablariga muvofiq markirovkalangan. Bu uskunaning to'g'ri utilizatsiya qilinishiga amin bo'lib siz odamlar sog'lig'i va atrof muhit uchun zararli oqibatlarni oldini olishda yordam berasiz.

Uskunada yoki ilova qilingan hujatlarda bunday belgi  bo'lishi, mahsulotni maishiy chiqindi sifatida utilizatsiya qilish mumkin emasligini, uni elektron va elektr uskunalarni toplash va qayta ishlash bo'yicha tegishli punktga yetkazish lozimligini anglatadi.

ELEKTR ENERGIYASINI TEJASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Ovgatni tayyorlab bo'lishga bir necha daqiqa qolganda plitani o'chirish orqali isiqlikdan maksimal darajada foydalaning.

Choynak yoki qozoningizning tag qismi isitish elementini butunlay qoplab turishi lozim; isitish elementidan kichikroq bo'lgan idish isiqning bexuda sarflanishiga sabab bo'ladi.


Qozon va tovalaringizni to'liq yopiladigan qopqoqlar bilan yoping va ovqat qilish davomida iloji boricha kamroq suvdan foydalaning. Ovgatni qopqoqsiz tayyorlash energiya sarfini yuqori darajada oshiradi.

Faqat tekis tagli qozon va tovalardan foydalaning.

EKOLOGIK ISHLAB CHIQARISH BAYONOTI


Bu uskuna yevropa standartlari EN 60350-2 bilan mos ravishda 66/2014 yevropa qonunidagi ekologik ishlab chiqarish talablariga javob beradi.

MAHSULOT TAVSIFI



1. Pihirish paneli
2. Boshqaruv paneli


BOSHQARUV PANELI



- | | | |
|--|--|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Yoqish/o'chirish tugmasi 2. Indikator chirog'i – plita yoniq 3. "6th Sense" tugmasi (maxsus funksiyalar) | <ol style="list-style-type: none"> 4. Indikator chirog'i – tugmalar qulfi yoniq 5. Tugmalar qulfi 6. Pishiruv zonasini tanlash ekranı 7. Pishiruv zonasini o'chirish tugmasi | <ol style="list-style-type: none"> 8. Slayderli sensorli ekran 9. Tez isitish tugmasi 10. "Funksiyalarni boshqarish" ekranı |
|--|--|--|

AKSESSUARLAR

QOZON-TOVALAR



Faqat induktsion plitalar talabiga javob beradigan, ferromagnetik materiallardan yasalgan qozon va tovalarni ishlating. Qozon to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlash uchun belgini tekshiring (odatda pastki muhr). Idish magnitligini tekshirish uchun magnitdan foydalaning.

Qozon sifati va tarkibi pishirish faoliyatini o'zgartirishi mumkin. Qozon tagi diametri ko'satkichlari plita ferromagnit yuzasining haqiqiy diametriga mos kelmaydi.

BO'SH YOKI TAGI INGICHKA IDISHLAR

Plita yongan holatda ichi bo'sh idishlardan foydalangan. Plita yuzasi haroratni doimiy kuzatib turadigan, va baland harorat paydo bo'lгanda, avtomatik ravishda "O'chirish" funksiyasini faollashtiradigan ichki havfsizlik tizimi bilan jihozlangan. Ichi bo'sh yoki tagi ingichka idishlardan foydalanganingizda, harorat tez ko'tarilishi va avtomatik "O'chirish" funksiyasi bir oz kechikish bilan jonlanib, qozon-tovalarga

zarar yetkazishi mumkin. Bunday holda, hech narsaga tegmang, va barcha qismlar sovishini kutib turing. Agar xato xabarları paydo bo'lsa, xizmat markaziga qo'ng'iroq qiling.

TURLI PISHIRISH HUDUDLARI UCHUN QOZON/TOVALARNING MINIMAL DIAMETRI

Plita funksiyalari normal ishlashini ta'minlash uchun qozon plita yuzasidagi ko'satilgan nuqtalarning biri yoki bir nechtasini qoplashi hamda uning diametri minimal qiymatdan katta bo'lishi lozim.

Anjomni joylashtirish	Minimal diametr
1 ta nuqtaga markazlashgan	10 cm
2 nuqta qamrab olingan	19 cm
3ta nuqta qamrab olinadi	baliq pishiriladigan idish/simli chanoq
4 ta nuqta qamrab olingan (gorizontal)	baliq pishiriladigan idish/simli chanoq
4 ta nuqta (2 + 2) qamrab olingan (vertikal)	26 cm

USKUNANI ISHLATISH YO'LI

BIRINCHI BOR FOYDALANISH

Plita sozlamalarini istalgan vaqtida o'zgartirish mumkin. Sozlamalarini o'zgartirish uchun funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan belgisi ustiga bosing.

Sozlamalar menyusidan quyidagilarni bajarish mumkin:

- tilni tanlash;
- yorqinlik darajasini sozlash;
- signal tovushlari balandligini sozlash;
- tugmalar ohangini sozlash;
- plita quvvatini sozlash;

- plita sozlamalarini zavod holatiga qaytarish;
- o'rnatilgan dasturiy ta'minot versiyasini tekshirish.

Agar elektr ta'minotida nosozlik yuz bersa ham sozlamalar saqlanib qoladi.

PLITA QUVVATINI SOZLASH

Plitaning maksimal quvvati darajasini talablar yoki taymer vaqtiga qarab sozlamalar menyusidan sozlash mumkin.

Mavjud quvvat darajalari: 2,5 kilovatta – 4,0 kilovatt – 6,0 kilovatt – 7,4 kilovatt.

KUNDALIK ISHLATISH



PLITANI YOQISH/O'CHIRISH

Plitani yoqish uchun ekran yonguncha tugmani taxminan 1 soniya bosib turing.


Agar 10 soniya ichida biror funksiya tanlanmasa, plita avtomatik ravishda faolsizlantiriladi.

O'chirish uchun ham xuddi shu tugmani ekran o'chguncha bosib turing. Barcha pishiruv zonalari faolsizlantiriladi. Agar biror tugmani 10 soniyadan ortiq bosib tursangiz, plita o'chadi.

Agar plitani o'chirganingizda u ishlatalayotgan bo'lsa, barcha pishiruv zonalari faolsizlantiriladi hamda qoldiq issilik "H" indikatori esa pishiruv zonalari sovguncha yonib turadi.

PISHIRUV ZONASINI TANLASH

Kerakli pishiruv zonasini chap tomonagi ekrandan mos panelni bosish orqali tanlash mumkin. Barcha tanlanmagan zonalarda esa yupqa chiziqlar paydo bo'ladi.




MOSLASHUVCHAN HUDUDNI TANLASH

Moslashuvchan hudud – bu bir nechta pishiruv zonalari bir-biri bilan kesishib, yagona pishiruv zonasini sifatida ishlataladigan hududdir.

Moslashuvchan hudud yaratish uchun:

Bir nechta panellarni tanlang yoki barmog'ingizni surib, panellarni astasekin bir-biriga ulang.



Moslashuvchan hududni ajratish uchun:

Ajratmoqchi bo'lgan zonaga mos keluvchi panelni 3 soniya bosib turing. Shuningdek, funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan "zonani ajratish" □ belgisini bosib ham ajratish mumkin.

Pishiruv zonasini ajratilgach, har bir zona uchun bir xil darajadagi quvvat taqsimlanas.


Agar pishiruv panelining barcha tanlangan qismlari 30 soniya ichida idish bilan qoplanmasa, chap displayda qalin chiziq ko'rindi. Shu qismni qayta ishga tushurish uchun o'ng displaydagagi "Idishni joylang" buyruq tugmasi bosiladi.



PISHIRUV ZONALARINI FAOLLASHTIRISH/FAOLSIZLANTIRISH VA QUVVATNI SOZLASH

Pishiruv zonalarini faollashtirish:

- Plitani yoqing. Idish joylanishi bilanoq, tizim uni avtomatik tarzda payqaydi. Quvvat darajasini tanlash uchun tavsija etilgan zonani belgilang.
- Qozonni tanlangan pishiruv zonasiga joylab, bunda u plita yuzasining bir yoki bir nechta havola nuqtasini egallashi lozim.




* Bunday holatda joylash orqali maksimal quvvat imkoniyatidan bahra olishingiz mumkin.

Esda tuting: Display yoki slayderli sensorli ekranni aksessuarlar bilan yopib qo'y mang. Agar idish displaylardan birini to'sib tursa, plita to'g'ri ishlamasligi mumkin. O'ng tomondagi displayda "SENSORLI HUDUDNI TEKSHIRING, obyektni bir daqiqa ichida olib tashlang" degan yozuv paydo bo'ladi. Idishni olib qo'ying va xabar yo'q bo'lishini kuting. Muammo davom etsa, uskunani elektr quvvat manbasidan uzing va uni qayta ulang.

Boshqarish paneli yaqinidagi pishirish zonalarida idish-tovloqlarni belgilangan chegara ichida saqlab turish tavsija etiladi (ular katta hajmga ega bo'lgani sababli idishlarning pastki va yugori qismalrini hisobga olish shart).


Bu esa sensorli panelni haddan tashqari qizib ketishiga yot' qo'ymaydi. Grildan foydalanganda yoki ovqatni qovurish paytida, iloji boricha, orqa pishirish zonalardan foydalaning.



- Chap tomondagi displaydan pishiruv zonasini yoki moslashuvchan hududni tanlang.
- O'zingiz xohlagan quvvat darajasini belgilash uchun barmog'ingizni bosing yoki slayderli sensorli ekran bo'ylab gorizontal yo'nalishda suring.



Belgilangan quvvat darjasini tanlangan pishiruv zonasining panelida paydo bo'ladi.



Har bir pishiruv zonasini uchun "1" (minimal quvvat) dan "18" (maksimal quvvat) gacha oraliqdagi har xil issiqlik parametrlarini tanlash mumkin. Slayderli sensorli ekran yordamida siz tezkor isitish funksiyasini ham tanlashingiz mumkin, u displayda "P" harfi bilan ko'rsatiladi.

Esda tuting: Agar qozon induksion pishirish uchun mos kelmasa, to'g'ri joylanmasa yoki o'lchami mos bo'lmasa, pishiruv zonasini paneli miltillaydi. Agar zona tanlanganidan keyin 30 soniya ichida qozon joylanmasa, tegishli pishiruv zonasini o'chadi.

Pishiruv zonalarini faollashtirish uchun:

Chap tomondagi displaydan pishiruv zonasini tanlab, keyin slayderli sensorli ekranning ustidagi "OFF" tugmasini bosing. Agar pishiruv

zonasi hanuz issiq bo'lsa, mos zonada qoldiq issiqlik indikatori "H" paydo bo'ladi.



IDISHNI JOYLASHTIRING

Bir nechta pishiruv zonalaridan iborat pishiruv hududidan foydalayotganda qozonni faol hududning istalgan qismiga qo'yish mumkin. Plita qozonning joyini avtomatik aniqlaydi.

Agar faol hududga yana bitta qozon qo'ymoqchi bo'lsangiz, plita yangi qozonni aniqlay olishi uchun "Idishni joylashtiring" buyrug'iidan foydalaning.



TUGMALAR QULFI

Tozalash paytida plitaning to'satdan ishga tushib ketishi yoki pishirish paytida boshqaruv elementlarining bosilib ketishining oldini olish uchun "tugmalar qulfi" tugmasini 3 soniya bosib turing: signal eshitilishi va ogohlantirish chirog'i bu funksiyaning faollahganini bildiradi. Boshqaruv paneli qulflanadi, faqat "OFF" tugmasidan tashqari.

Boshqaruv tugmalarini yana faollashtirish uchun Tugmalar qulfi" tugmasini yana 3 soniya bosib turing. Ogohlantiruv chirog'i o'chadi va plita yana faollahadi.



TAYMER

Plita o'chiqligida o'ng tomondagi displaydan taymer sifatida foydalishingiz mumkin.

Taymerni faollashtirish uchun:

- Plitani yoqing.
- Funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan qumsoat belgisini bosing.
- Vaqtni belgilash uchun +/- tugmalaridan foydalaning.
- Belgilangan vaqt tugagach, ovozli signal eshitiladi.

Taymerni o'zgartirish yoki o'chirish uchun:

- Funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan qumsoat belgisini bosing.
- Kerakli vaqtini belgilash uchun + va - tugmalaridan foydalaning yoki taymerni o'chirish uchun "STOP" tugmasini bosing.



PISHIRISH VAQTINI BELGILASH

Pishiruv zonalarini avtomatik o'chadigan qilib dasturlash mumkin.

Pishirish vaqtini belgilash uchun:

- Pishiruv zonasini tanlab, keyin zarur quvvat darajasini sozlang.
- Funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan sekundomer belgisini bosing.
- Vaqtni belgilash uchun +/- tugmalaridan foydalaning.
- Belgilangan vaqt tugagach, ovozli signal eshitiladi hamda pishiruv zonalari avtomatik tarzda o'chadi.

Pishirish taymerini o'zgartirish yoki o'chirish uchun:

- Faol pishiruv zonasini tanlang
- Funksiyalarni boshqarish ekranida paydo bo'ladigan sekundomer belgisini bosing.
- Kerakli vaqtini belgilash uchun + va - tugmalaridan foydalaning yoki taymerni o'chirish uchun "STOP" tugmasini bosing.

Har bir zona yoki moslashuvchan hudud uchun alohida pishirish vaqtini belgilash uchun ham shu qadamlarga amal qiling.

MAXSUS FUNKTSIYALAR



6th SENSE

"6th Sense" tugmasi foydalanuvchiga bir nechta funksiyalardan foydalanish imkonini beradi:

- Yordam olib pishirish
- Bosh oshpaz nazorati
- Flexifull

O'ng tomondagi funksiyalarni boshqarish ekranida siz maxsus funksiyalar o'rtaсиda almashish hamda o'zingiz xohlagan bandni tanlashingiz mumkin.

Strelkalar yordamida mavjud variantlarning biridan ikkinchisiga o'tishingiz mumkin.

Tanlangan bandni tasdiqlash uchun tugmasini bosing hamda avvalgi menyuga qaytish uchun esa tugmasini bosing.

YORDAM OLIB PISHIRISH

Bu funksiya sizga bir necha xil ovqatni eng maqbul usulda pishirish uchun avvaldan sozlangan funksiyalardan birini tanlash imkonini beradi. Plita foydalanuvchiga qozonni isitish va mavsumga tayyorlash uchun eng maqbul sharoitlarni taqdim etadi. U, shuningdek, optimal natijaga erishish uchun pishirishning har xil bosqichlarida amal qilinadigan ko'rsatmalarni ham taqdim etadi.

Yordam olib pishirish funksiyasini faollashtirish uchun:


1. "6th Sense" tugmasini bosing.
2. Funksiyalarni boshqarish ekranidan "Assisted Cooking" bandini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.




3. Pishirmoqchi bo'lgan ovqat turkumini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.



4. Keyin pishirish usulini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.




5. Keyin pishirish sharoitini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.





6. To'rtta pishiruv zonasidan foydalanish mumkin bo'ladi. Qozonni plita yuzasidagi kamida ikkita nuqtani egallaydigan qilib joylang.

Faqat "Moka" pishirish rejimida qozonni plitaning faqat bitta nuqtasini egallaydigan qilib joylashtirish mumkin.

Quyida bir nechta aksessuar uchun joylashtirish namunasi keltirilgan.



7. Chap tomondagi displaydan o'zingiz xohlagan pishiruv zonasini tanlang. Tanlangan zonada "A" paydo bo'ladi.



8. O'ng tomondagi displayda ko'rsatmalar paydo bo'ladi (m-n, "Yog' qo'shing" yoki "Oziq-ovqat qo'shing"). Har bir bosqich yakunida foydalanuvchidan pishirishni davom ettirish uchun tasdiq so'raladi.
9. Agar zarur bo'lsa, avvaldan sozlangan quvvat darajasini istalgan vaqtida - va - tugmalari yordamida o'zgartirish mumkin.
10. Pishirish yakuniga yetgach, pishiruv zonasini o'chirish uchun "STOP" tugmasini bosing. Agar pishirish paytida bir nechta zona ishlatalgan bo'lsa, avval o'chirmoqchi bo'lgan zonani tanlash lozim.



Esda tuting: "Yordam bilan ovqat pishirish" funksiyasi hatto bir yoki bir nechta pishiruv zonasini allaqachon faollashtirilgan bo'lsa ham yoqilishi mumkin.

Birdan ortiq pishiruv zonasini uchun Yordam olib pishirish funksiyasini yoqish uchun:

Birinchi pishiruv zonasini uchun "Yordam bilan ovqat pishirish" funksiyasi yoqilgach, "6th Sense" tugmasini yana bosing hamda yangi pishiruv zonasini uchun faollashtirish jarayonini takrorlang. Allaqachon faollashtirilgan zonalarni tanlab bo'lmaydi.

Esda tuting: "Yordam bilan ovqat pishirish" funksiyasi bilan 4 tagacha zonani ishlatalish mumkin, biroq tanlangan quvvat darajasi parametri bunga mos kelishi lozim.

Kattaroq hudud hosil qilish maqsadida zonalarni birlashtirib bo'lmaydi.

Yordam olib pishirish funksiyasi yoniqligida odatiy usulda pishirish uchun:

"Yordam bilan ovqat pishirish" funksiyasi yoniqligida normal usulda davom etishdan oldin chap tomondagi displaydan o'zingiz xohlagan pishiruv zonasini tanlashingiz hamda o'sha zona uchun quvvat darjasini sozlashingiz mumkin.

Mavjud variantlar

OZIQ-OVQAT TURKUMI	PISHIRISH USULI
	Go'sht Grilda pishirish, tovada qovurish, qaynatish
	Baliq Grilda pishirish, tovada qovurish, qaynatish
	Sabzavotlar Grilda pishirish, tovada qovurish, qaynatish
	Sous, so'l, sho'rvalar Souslar (pomidor, kreml sho'rva, beshamel) Sho'rvalar (avvaldan isitmasdan qaynatish)
	Desertlar Shirin krem, panna-kotta, eritilgan shokolad, blinchik
	Tuhum Qovurilgan tuxum, omlet, qaynatish (tuxum qaynatish), frittata, o'rashmäri
	Pishloq Grilda pishirish, tovada qovurish, fondyu
	Makaron va guruch Qaynatish, tovada qovurish, risotto, guruch pudingu
	Ichimliklar Asta qaynatish (sut), suv (qaynatish, asta qaynatish), moka
	Odatdag'i Qaynatish, grilda pishirish, tovada qovurish, asta qaynatish, eritish

ASOSIY PISHIRISH USULLARI

(Har bir usulda qo'shimcha bandlar bo'lishi mumkin)

ERITISH

Ovqatni eritib, eng mos haroratga keltirish hamda uni kuydirib yubormasdan, holatini saqlab qolish uchun.

Bu usul shokoladga o'xshagan nozik oziq-ovqatlarga zarar yetkazmaydi hamda qozonga yopishib qolishining oldini oladi. Pishirish darajasini istalgan vaqtida o'ng tomondagi displaydagi + va - tugmalari yordamida sozlash mumkin.

MILTILLATIB QAYNATISH

Sekin pishadigan taomlar va sekin bug'lanadigan suyuqlar uchun, kuydirib yubormasdan, holatini saqlab qolish uchun. Bu usul oziq-ovqatlarga zarar yetkazmaydi hamda qozonga yopishib qolishining oldini oladi.

Qozon sifati va turi ish unumdorligi yoki pishirish vaqtiga ta'sir qilishi mumkin.

Pishirish darajasini istalgan vaqtida o'ng tomondagi displaydagi + va - tugmalari yordamida sozlash mumkin.

QAYNATISH*

Suvni samarali isitish hamda u qaynashni boshlaganda ovozli va vizual signal yordamida foydalanuvchini ogohlantirish uchun.

Foydalanuvchi tasdig'ini kutish davomida tizim svuni me'yorida asta qaynatib turadi, shunda u to'kilib ketmaydi va energiya isrof bo'lmaydi. Bu funksiya yoniqligida ovozli signal foydalanuvchini qozon bo'sh ekanligi (ichida suvi yo'q) yoki qaynab qurib ketganligi haqida ogohlantiradi.

Pishirish darajasini istalgan vaqtida o'ng tomondagi displaydagi + va - tugmalari yordamida sozlash mumkin.

Tuzni suv qaynagani haqidagi signal eshitilganidan keyin qo'shing.

TOVADA QOVURISH*

Bo'sh qozon yoki tovani qizitib olish yoki tayyorlash. Ovozli va vizual signal qozon yoki tovaga solinadigan oziq-ovqat uchun mos harorat bo'lganini bildiradi. Foydalanuvchi tasdig'ini kutish davomida tizim aksessuarni me'yorida isitib turadi, shunda tova harorati oshib ketmaydi va energiya isrof bo'lmaydi.

Optimal sharoitlarda bu funksiyadan qozonlar bilan va xona haroratida tayyorlash uchun foydalaning.

Pishirish darajasini istalgan vaqtida o'ng tomondagi displaydagi + va - tugmalari yordamida sozlash mumkin.

Bu funksiya uchun mos anjomlardan foydalanish lozim.

Qopqoqdan foydalanimang – sachrab ketishiga qarshi maxsus himoya moslamasidan foydalaning.

Bu funksiya yordamida pishirishda qovurish uchun mos yog'dan foydalish tavsya etiladi, masalan, har xil turdag'i o'simlik yog'lari. Har xil yog' ishlatajotganda har doim birinchi marta ishlatalish paytida pishirish jarayonini diqqat bilan kuzatib turing.

GRILDA PISHIRISH*

Bu funksiya har xil oziq-ovqatlarni qalinligiga qarab grill qilish imkonini beradi. Solinadigan oziq-ovqat uchun mos harorat bo'lganida plita signal chiqaradi. Keyin plita ovqatni pishirish paytda haroratni barqarorlashtirib, shunday ushlab turadi. Foydalanuvchi oziq-ovqat solingenini tasdiqlagach, pishirish boshlanadi.

Oziq-ovqatni isitish bosqichida tayyorlab olish tavsiya etiladi, shunda signal eshitilishi bilanoq uni solish mumkin bo'ladi.

Optimal sharoitda bu funksiyadan qozon bilan hamda xona haroratida tayyorlash uchun foydalaning.

Pishirish darajasini istalgan vaqtida o'ng tomondagi displaydagi + va - tugmalari yordamida sozlash mumkin.

Agar buning uchun mo'ljallangan simli chanoqdan foydalanmsangiz, grill qilish funksiyasidan ilk marta foydalanishda ehtiyoj bo'ling, taglikning sifati isitish vaqtiga ta'sir qilishi mumkin. Tagi ingichka anjomlar qisqa vaqt ichida yuqori haroratga chiqishi mumkin.

MOKA*

Bu funksiya pech ustida kofe tayyorlagichning avtomatik isishini ta'minlaydi. Isitish bosqichini faollashtirish uchun menyudan shu funksiyani tanlang, kofe tayyor bo'lsa, signal chalinadi. Bu funksiya kofe to'kilishining oldini olish maqsadida avtomatik o'chadigan qilib dasturlangan. Birinchi marta ishlatajotganda ziarur shart-sharoitlar mayjudligini tekshiring. Optimal sharoitda bu funksiyadan kofe tayyorlagich va xona haroratidagi suv bilan foydalaning.

* Bu funksiyalarni ishlatalish uchun mos anjomlardan foydalanish tavsya etiladi:

- qaynatish uchun: WMF SKU: 07.7524.6380
- tovada qovurish uchun: WMF SKU: 05.7528.4021
- grill qilish uchun: WMF SKU: 05.7650.4291
- Moka, bialetti uchun: MOKA INDUZIONE 3TZ ANTRACITE

Esda tuting: Plita normal ishlashi uchun isitishning birinchi daqiqasida qozon yoki tovani siljitimiga urinmang.

BOSH OSHPAZ NAZORATI

Bu funksiya plitani to'rtta pishiruv zonasiga ajratadi, ularni avvaldan belgilangan quvvat darajasida bir paytda faollashtiradi. U sizga qozonlarni bitta hududdan ikkinchisiga ko'chirish hamda har xil haroratda pishirishda davom etish imkonini beradi.

Bosh oshpaz nazorati funksiyasini yoqish uchun:

1. Ozonni joylashtiring.
2. "6th Sense" tugmasini bosing.
3. Funksiyalarni boshqarish ekranidan "Chef Control" (Bosh oshpaz nazorati) bandini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.



4. To'rtala pishiruv zonasini panellari mos quvvat darjasasi (past, o'rta, yuqori) chap tomonidagi displayda paydo bo'ladi.
5. Agar yana qozon qo'shmoqchi bo'lsangiz, "Idishni joylashtiring" buyrug'ini tanlang .
6. Bu funksiyadan chiqish uchun "STOP" tugmasini bosing.



Pishiruv zonasini quvvatini o'zgartirish uchun:

1. Pishiruv zonasini tanlang.
2. Kerakli quvvat darajasini tanlash uchun barmog'ingizni slayerderli sensorli ekran bo'ylab suring, u 30 soniya davomida ko'rinish turadi.
3. Tanlangan quvvat darajasiga mos so'z (low - past; medium - o'rta; high - yuqori) yana paydo bo'ladi.

Esda tuting: O'zgartirilgan sozlamalar ularni yana o'zgartirmaguningizcha yoki asliga qaytarmaguningizcha saqlanib qoladi.

FLEXIFULL


Bu funksiya butun plitani yagona pishiruv hududi sifatida ishlatalish imkonini beradi.

Flexifull funksiyasini yoqish uchun:

1. Ozonni joylashtiring.
2. "6th Sense" tugmasini bosing.
3. Funksiyalarni boshqarish ekranidan "Flexifull" bandini tanlang va tanlovingizni tasdiqlang.



4. Slayerderli sensorli ekrandan kerakli quvvat darjasini tanlang. Belgilagna quvvat darjasasi chap tomonidagi displayda ko'rinishi.
5. Agar yana qozon qo'shmoqchi bo'lsangiz, "Qozon qo'shish" buyrug'idan foydalaning .
6. Bu funksiyadan chiqish uchun "STOP" tugmasini bosing.



KO'RSATKICHLAR



QOLDIQ ISSIQLIK INDIKATORI

Agar pishiruv zonasini tanlash ekrani panelida "H" paydo bo'lib qolsa, bu o'sha pishiruv zonasasi hali issiq ekanligini bildiradi. Pishiruv zonasasi sovisa, keyin "H" yo'qoladi.

PISHIRISH JADVALI

QUVVAT DARAJASI		PISHIRISH TURI	TAVSIYA QILINGAN ISHLATISH pishirish tajriba va odatlarini ko'rsatish
Maksimal issiqlikni o'rnatish	P	Tez issitish	Oziq-ovqatni haroratini tez qo'tarish uchun, tez qaynatish (suv uchun), yoki pishirish suyuqliklarni tez issitish uchun ideal.
	14 - 18	Qovurish, qaynatish	Qizartirish, pishirishni boshlash, chuqur-muzlatilgan mahsulotlarni qovurish, suyuqliklarni tez qaynatish uchun ideal.
		Qizartirish, sal-pal qovurish, qaynatish, grilda pishirish	Sal-pal qovurish, jonli qaynatish, pishirish va gril panjarasida tayyorlash.
	10 - 14	Qizartirish, pishirish, dimlash, sal-pal qovurish, grilda pishirish	Sal-pal qovurish, mayin qaynatish, pishirish va gril panjarasida tayyorlash, va issitishdan oldingi aksessuarlar uchun ideal.
		Pishirish, dimlash, sal-pal qovurish, grilda tayyorlash, quyuqligi qaymoqsimon bo'lganigacha pishirish	Dimlash, mayin qaynatish, pishirish va grilda (tayyorlash uzoq muddatda).
	5 - 9	Pishirish, past olovda qaynatish, quyultirish, krenga aylanganigacha pishirish	Suyuqliklar qo'shilgan (suv, vino, sho'rva, sut), sekin pishadigan retsepler (guruch, souslar, duhovkada qizartirish, baliq) va makaronlarni qaymoqlash uchun ideal.
			Sekin pishirish (miqori 1 litrdan kam) retseptlar uchun ideal :suv qo'shilgan (suv, vino, sho'rva, sut) guruch, souslar, duhovkada qizartirish, baliq .
	1 - 4	Eritish, muzdan tushirish	Sariyo'g'ni yumshatish, shokoladni mayin eritish, kichkina narsalarni muzdan tushirish.
		Ovqatni issiq saqlash, rizotto (guruchni) qaymoqlash	Kam miqdordagi hozir pishgan ovqatlarni saqlash, yoki ovqatni issiq tarqatish va rizotto (guruchni) qaymoqlash uchun ideal
Quvvat yo'qolgan	Off	-	Plita yuzasi Kutish yoki O'chgan rejimida ("H" harfi bilan belgilangan pishirish oxiridagi issiqlik qoldiqlari bo'lishi mumkin).

TOZALASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH



OGOHLANTIRISH

- Bug'simon modda sepib ishlataladigan tozalash vositalaridan foydalanmang.
- Tozalashdan olding pishirish zonasasi o'chirilganligi va ("H") qoldiq issiqlik ko'rsatkichi yonmasligiga ichonch hosil qiling.

Bu muhim:

- Shisha yuzaga zarar yetkazishi mumkin abraziv gubkalar yoki bezlardan foydalanmang.
- Har bir foydalanishdan so'ng plitani (soviganida) oziq-ovqat qoldiqlaridan tozalang.
- Shakar yoki tarkibida shirinlik mavjud ovqatlar plitaga zarar yetkazishlari mumkin, ularni darhol artib tozalash shart.
- Tuz, shakar va qum plitani shisha yuzasini timdalashi mumkin.
- Yumshoq mato, chang va namni yutadigan oshxonha qog'oz'i yoki maxsus tozalovchi vositalardan foydalaning (Ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga rioya qiling).
- Pishirish zonalarida suyuqlik chachrashlari ustudagi idishlarni harakatlanishi yoki tebranishiga olib kelishi mumkin.
- Tozalashdan keyin plitani yahshilab arting.

Agar shisha yuzasida Xelium™ logotipi paydo bo'lsa, demak plitaga iXelium™ texnologiyasi yordamida ishlow berilgan; bu Whirlpool ning ekskluziv texnologiyasi bo'lib, mukammal poklik natijalarini bergen holda, plita yuzasini uzoq muddatda yaltiroq saqlaydi.

iXelium™ texnologiyali plitalarni tozalash uchun, quidagi tavsiyalarga rioya qiling:

- Suv yoki kundalik shisha tozalash vositasida namlangan yumshoq (mikrofibradan qilingani end a'lo) matodan foydalaning.
- Eng a'lo natijalarga erishish uchun namlangan matoni plitaning shisha yuzasida bir necha daqiqa ushlab turing.

MUAMMOLARNI YECHISH

- Elektr quvvati uzilmaganligini tekshiring.
- Agar plitani ishlatgandan keyin o'chira olmasangiz, uni elektr ta'minotidan uzing.
- Agar plita yoqilganda ekranda harf va raqamlardan iborat kodlar paydo bo'lса, ko'satma olish uchun quyidagi jadvalga qarang.

Iltimos esda tuting: Suv mavjuligi, plita yuzasidagi tugmalari ustuda turgan idish yoki boshqa byumlardan suyuqlik sachrashlari, tasoddifan nazorat panel himoyasi vazifasini o'chirish yoki yoqishlari mumkin.

xato kodi	Tavsif	Mumkin bo'lgan sabablar	Muammo yechimi
C81, C82	Ortiqcha baland harorat tufayli boshqaruв paneli o'chadi.	Elektronik qismalarni ichki harorati juda baland.	Plita yuzasini qayta ishlatishdan oldin uni sovigani qadar kuting.
F02, F04	Ulanish kuchlanishi noto'g'ri.	Sensor uskuna va elektr yetkazish vositasini kuchlanishlari o'ttasida tafovut aniqlaydi.	Plitani elektr tarmog'idan ajratib elektr ulanishini tekshiring.
F01, F06, F12, F13, F25, F34, F35, F36, F37, F41, F47, F58, F61, F76	Plitani elektr tarmog'idan ajrating .Bir necha soniyadan keyin plitani elektr ta'minotiga qayta ulang. Muammo davom etsa, xizmat ko'satish markaziga qo'ng'iroq qiling, va ekranda paydo bo'lgan xato kodini ko'rsating.		



OPERATSIYA PAYTIDA PAYDO BO'LGAN TOVUSHLAR

Plitalar normal ishslash paytida o'zidan shovqin chiqarishi mumkin. Qozonni aniqlash bosqichida plitadan chiqillagan ovoz chiqadi hamda pishirish paytida ham pishillagan va shuvillagan tovushlar eshitilishi mumkin. Pishillash va shuvillashlar, odatda, qozonlardan chiqadi, ular ishlatilayotgan qozon asosining muayyan xususiyatlari tomonidan

hosil qilinadi (masalan, asosi har xil qatlamlili materialdan yoki notekis tayyorlangan bo'lса). Bu shovqinlar ishlataligan anjomlarga va ulardagi oziq-ovqat miqdoriga qarab farq qilishi mumkin va ular hech qanday nosozlikni bildirmaydi.

TASDIQLANGAN PISHIRISH

Quyidagi jadval taftish organlari, bizning mahsulotdan foydalanishlari uchun maxsus yaratilgan.

Tasdiqlangan pishirish	Tasdiqlangan pishirish pozitsiyalari
Issiqlik tarqalishi, "Quymoq" testi acc. to EN 50304/EN 60350 §7.3	
Heat performance, "French fries" test acc. to EN 60350/50304 §7.4	
Eritish va issiq saqlash, "shokolad"	
Past olovda qaynatish "guruch pudingi"	

EKO-DIZAYN: Test, qoidalarga muvofiq, plitaning barcha pishirish zonalarini, birlashgan maydon hosil qilish uchun, tanlagan, yoki Flexifull vazifasidan foydalangan holda, amalga oshirildi.

SOTUVDAN SO'NGGI XIZMAT

SOTUVDAN SO'NGGI XIZMATGA QON'G'IROQ QILISHDAN OLDIN:


1. Berilgan tavsiyalar yordamida, muammoni o'z kuchingiz bilan yechib bilişhingizni ko'ring **MUAMMOLARNI YECHISH**.
2. Nosozlik davom etish-etmasligini tekshirish uchun uskunani o'chirib qayta ulang.

AGAR YUQORIDA AYTIB O'TILGAN TEKSHIRUVLARDAN SO'NG NOSOZLIK BARTARAF ETILMASA, SIZGA YAQIN BO'LGAN SOTUVDAN SO'NGGI XIZMAT MARKAZIGA MUROJAAT QILING.

Yordam olish uchun, kafolat broshurasida berilgan raqamga qo'ng'iroq eting, yoki www.whirlpool.eu vebssaytidagi yo'l-yo'rqliarga rioya qiling.

Savdo xizmatidan so'ng Mijoz bilan boghlansangiz, quyidagilarga doimo aniqlik kriting:

- nosozlikni qisqacha tavsifini;
- uskunani tipi va aniq modelini;



- hizmat tartib raqamini (reyting plitasidagi Service so'zidan so'ng kelgan raqam). Hizmat tartib raqami kafolat broshurasida ham ko'rsatilgan;





SERVICE 0000 000 00000








- to'liq adresingizni;
- telefon raqamingizni.










Agar remont ishlari zaruriyati tug'ilgan bo'lsa vakolatli sotuvdan so'ngi xizmat markaziga murojaat qiling (asl ehtiyoj qismlaridan foydalanib remont ishlarni to'g'ri bajarilishini kafillamoq uchun).

Agar yashirin o'rnatish qo'llangan bo'lsa Sotuvdan So'ngi Xizmat telefoni 4801 211 00112 raqamiga qo'ng'iroq qilib yig'ish vintlar komplektini talab qiling.








R

black-nero-preto-μαύρος-must-melns-juodas-czarny-schwarz-noir-zwart-negru-черно-црн-črna-сіно-чорний-чорний-կара-černá-čierna-fekete-svart-svart-sort-siyah-dubh

S

brown-marrone-marrón-marrom-кафé-pruun-brüns-rudas-brązowy-braunen-brun-bruin-maro-caffè-braon-ѓava-smeđ-korichnevý-коричневий-қоңыр-hnědý-hnedý-barna-brunt-ruskea-brunt-brun-kahverengi-donn

T

blue (gray)-blu (grigio)-azul (gris)-azul (cinza)-μπλε (γκρι)-sinine (hall)-zila (pelēka)-mélyna(pilkas)-niebieski (szary)-blau (grau)-bleu (gris)-blauw (grijs)-albastru (gri)-синьо (сиво)-плава (сива)-modro (sivo)-plava (siva)-синий (серый)-синій (сірий)-kék (cyp)-modrý (šedá)-modrý(sivá)-kék (szürke)-blå (grå)-sininen (harmaa)-blå (grå)-blåt (grát)-mavi (gri)-gorm (liath)


= E

yellow/green-giallo/verde-amarillo/verde-amarelo/verdekítrivo/πράσινο-kollane/roheline-dzeltens/zalš-geltonažalia-žólty/zielony-gelb/grün-jaune/vert-geel/groen-galben/verde-жълто/зелено-жуто/зелена-rumeno/zeleno-žuto/zelena-желтый/зеленый-жовтий/зелений-жасыл/сары-žlutá/zelená-žltá/zelená-sárga/zöld-gul/grønn-keltainen/vihreä-gul/grön-gul/grøn-sari/yeşil-bui/glas

N

blue-blu-azul-azul-μπλε-sinine-zila-mélyna-niebieski-blau-bleu-blauw-albastru-синьо-плава-modro-plava-синий-синий-kék-modrý-modrý-kék-blå-sininen-blå-blåt-mavi-gorm


400011204478